

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/2025.27.12.Yu.01.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

RUZIYEV BEXZOD RUSTAMOVICH

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BOJXONA ORGANLARI TOMONIDAN
TOVAR BELGILARIGA BO‘LGAN HUQUQLARNING OMMAVIY-
HUQUQIY HIMOYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.02. – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq.
Moliya va bojxona huquqi

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy
(PhD)

Ruziyev Behzod Rustamovich

O‘zbekiston Respublikasi bojxona organlari tomonidan tovar belgilariga bo‘lgan huquqlarning ommaviy-huquqiy himoyasini takomillashtirish.....4

Ruziev Behzod Rustamovich

Improving public legal protection of trademark rights by customs authorities of the Republic of Uzbekistan.....21

Рузиев Бехзод Рустамович

Совершенствование публично-правовой защиты прав на товарные знаки таможенными органами Республики Узбекистан.....37

E‘lon qilingan ilmiy ishlar ro‘uxati

Список опубликованных научных работ

List of published scientific works.....41

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/2025.27.12.Yu.01.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

RUZIYEV BEXZOD RUSTAMOVICH

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BOJXONA ORGANLARI TOMONIDAN
TOVAR BELGILARIGA BO‘LGAN HUQUQLARNING OMMAVIY-
HUQUQIY HIMOYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.02. – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq.
Moliya va bojxona huquqi

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2022.4.PhD/Yu851-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<https://tsul.uz/uz/fan/avtoreferatlar>) va “ZiyoNET” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Musayev Bekzod Tursunboyevich
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Otaxonov Foziljon Haydarovich
yuridik fanlar doktori, professor

Xudjayev Shoxjaxon Akmaljon o‘g‘li
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori
(PhD)

Yetakchi tashkilot:

**O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot
va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona
qo‘mitasining Bojxona instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/2025.27.12.Yu.01.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 22-yanvar soat 12:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36; faks: (99871) 233-37-48, e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1478-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 9-yanvar tarqatildi.

(2026-yil 9-yanvardagi 2-raqamli reyestr bayonnomasi).

A.M. Xashimhonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, yuridik fanlar doktori, professor

X.U. Turdiyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

I.R.Bekov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
huzuridagi Ilmiy seminar raisi, yuridik
fanlar doktori, professor

KIRISH (DISSERTATSIYA ANNOTATSIYASI)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda tovar belgisi va uning ommaviy-huquqiy himoyasini tashkil qilish, ushbu sohadagi qonunchilikni unifikatsiya qilish, savdo-sotiq obyekti sifatida huquqiy muhofazasini ta'minlash davlatlarning investitsiya muhitini rag'batlantiruvchi vosita sifatida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jahon savdo tashkiloti (keyingi o'rinlarda – JST) tomonidan kontrafakt mahsulotlarining savdosi tovar belgisini qadrsizlantiruvchi eng katta iqtisodiy xavf sifatida e'tirof etilgan. “Yevropa Ittifoqi Intellektual mulk idorasining ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'ylab bojxona organlari tomonidan aniqlangan kontrafakt mahsulotlar savdosi yiliga 460 milliard yevroni tashkil qiladi, bu butun dunyo bo'yicha savdo-sotiqning 3,4 foizini tashkil etadi. Yevropa Ittifoqida kontrafakt mahsulotlar barcha importning qariyb 6,8 foizini yoki yiliga 121 milliard yevroni tashkil qiladi”¹. Mazkur ko'rsatkichlar tovar belgisi va uning ommaviy-huquqiy himoyasini tashkil qilish, ushbu sohani xalqaro standartlar asosida takomillashtirish zaruratini dalillaydi.

Jahonda tovar belgilarini ro'yxatdan o'tkazishning universal tartib-taomillarini ishlab chiqish, parallel importda tovar belgilari muomalasini tartibga solish, kontrafakt tovarlarni bojxona organlari tomonidan aniqlash mezonlarini ishlab chiqish, tovar belgisi mulkdorining huquqlarini himoya qilishning ommaviy-huquqiy tartibotini takomillashtirish, tovar belgisiga bo'lgan huquqni bojxona organlari tomonidan tan olish va uni himoya qilish asoslarini unifikatsiya qilish bilan bog'liq masalalar muhim tadqiqot yo'nalishlari sifatida o'rganilmoqda.

Mamlakatimiz iqtisodiyoti va ishlab chiqarishida JST talablariga javob beradigan sog'lom raqobat muhitni qaror toptirish, bojxona organlari tomonidan kontrafakt mahsulotlari savdosiga chek qo'yish, faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan sharoitlarni yaratish, intellektual mulkning ishonchli huquqiy himoyasini ta'minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. “Intellektual mulk himoyasi sohalarida milliy qonunchilikni Jahon savdo tashkiloti bitimlarining talablariga muvofiqlashtirish bo'yicha tegishli takliflar ishlab chiqish”² va “Mamlakat iqtisodiyot tarmoqlariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish, uning raqobatbardoshligini ta'minlash”³ ustuvor vazifa etib belgilangan bo'lib, mazkur vazifalar ushbu sohadagi qonunchilikni takomillashtirishni dolzarb etib belgilaydi. Bugungi kunda huquqni qo'llash amaliyotining o'tkazilgan tahlili shuni ko'rsatadiki, bojxona organlari tomonidan intellektual mulk sohasidagi huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash va ularga barham berish bo'yicha ishlarning lozim darajada bajarilmaganligi, ushbu

¹ European Union Intellectual Property Office (EUIPO) (2024), Trends in Trade in Counterfeit and Pirated Goods, available at: <https://www.euipo.europa.eu/en/news/observatory/counterfeit-goods-cost-eu-industries-billions-of-euros-and-thousands-of-jobs-annually>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 fevraldagi “Intellektual mulk sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4168-son qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 08.02.2019 y., 07/19/4168/2594-son

sohada davlat xizmatlari ko'rsatish tizimining samarasizligi, idoralararo mustahkam hamkorlikning mavjud emasligi, bojxona organlarida intellektual mulk sohasida malakali kadrlarning yetishmasligi, shuningdek patent bojlari va to'lovlarining yuqori darajada ekanligi ushbu sohani rivojlantirishga salbiy ta'sir etmoqda. Mazkur holatlar ushbu mavzuni tadqiq qilishni dolzarb etib qo'ymoqda.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (1996), Bojxona kodeksi, "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi (2001), "Raqobat to'g'risida"gi (2023), "Firma nomlari to'g'risida"gi (2006), "Davlat bojxona xizmati to'g'risida"gi (2018) qonunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi (2022) Farmoni, "Intellektual mulk sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2019) va "Intellektual mulk obyektlarini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2021), "Intellektual mulk sohasini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2022), qarorlari, shuningdek mavzuga oid boshqa qonun hujjatlarida belgilangan ustuvor vazifalarning amalga oshirilishida ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekiston Respublikasi bojxona organlarining ayrim vazifalari yoki funksiyalari, faoliyatini takomillashtirish masalalari, ularni tovar belgilariga bo'lgan huquqlarning ommaviy-huquqiy himoyasini tashkil qilishdagi o'rni bir qator milliy olimlarimiz – S.A.Alimbayev, O.Z.Zayniddinov, R.A.Turapov, E.Rahmatovlar tomonidan tadqiq etilgan. Shuningdek, bojxona organlarining davlat boshqaruv organlari tizimida tutgan o'rni, ularning faoliyat yo'nalishlari A.Tursunov, Q.Berdimuratov, S.Gulyamov, T.Rahmonov, O.Jidkova, A.Jo'rayev, S.Isamuxamedova, G'.Safarov va boshqa olimlari tomonidan tadqiq qilingan.

Tovar belgilarining fuqarolik-huquqiy masalalarining ayrim jihatlari mamlakatimizning olim va tadqiqotchilaridan – X-A.Rahmonqulov, I.B.Zokirov, O.Oqyulov, N.F.Imomov, I.I.Nasriyev, Z.K.Babakulov, D.A.Ogay, B.U.Axmadjonov, S.M.Safoyeva, Z.S.Akramxodjayeva, T.Pardayev, L.Po'latova, A.Shadmankulov, A.Ibragimov, K.Axmedjanov, B.Xamdamov, N.Karimov, Sh.Azizov, S.Alimbayev, S.Aripov, R.Turapov va boshqalarning ilmiy ishlarida muayyan darajada ko'rib chiqilgan⁴.

So'nggi yillarda intellektual mulk obyekti sifatida tovar belgilari va ularni huquqiy muhofazasiga oid tadqiqotlar o'tkazgan xorijiy tadqiqotchilar sifatida Lourens Lessig (Harvard Law School), Layonel Bentli (University of Cambridge),

⁴ Mazkur ilmiy ishlarning to'liq nomi foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

Kristofer Sprigman (NYU School of Law), Martin Senftleben (VU University Amsterdam), Syuzan Skafidi (Fordham University), Baron Phillips (Queen Mary University of London), Grem Dinvidi (University of Oxford), Piter Yu (Drake University Law School), Djeremi Phillips (University College London), Iren Kalbol (University of Copenhagen), Frederik Mostert (King's College London), Daniel Gervais (Vanderbilt University), David Hal Bernstein (AQSh, N'yu York universiteti), A. Nicholas Falkides (AQSh, Pensilvaniya universiteti), Mark P. McKenna (AQSh, Kaliforniya, Berkeley universitetlari), Dirk Visser (Gollandiya, Leiden universiteti), Phan Ngoc Tam (Shvetsiya, Lund universiteti), Ozgur Arican, Dima Basma (Buyuk Britaniya, Manchester universiteti), MDH olimlaridan A.Agrashenkov, M.N.Blinov, V.N.Ivanov, A.F.Nozdachev, A.A.Gravina, P.S.Tishkovskiy, Yu.Petrov, E.P.Gavrilov, V.S.Nikulina, K.Ramazanova kabilar tomonidan tovar belgilarining huquqiy muhofaza qilish, ushbu sohada bojxona organlarining ahamiyati kabi masalalar o'rganilgan⁵.

Yuqoridagi tadqiqotchilar tomonidan intellektual mulkning alohida obyekt bo'lgan tovar belgilariga nisbatan mutlaq huquqlarning alohida xususiyatlari va u bilan bog'liq munosabatlarning umumiy huquqiy tartibga solishni tahliliga qaratilgan bo'lsa-da, bojxona organlari tomonidan tovar belgilariga bo'lgan huquqlarni ommaviy-huquqiy muhofazasi masalalari kompleks tarzda tadqiq qilinmagan. Shu bois, ushbu mavzuni mazkur rakursda tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot mavzusi Toshkent davlat yuridik universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga kiritilib "Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida davlat boshqaruvini yanada erkinlashtirishning asosiy yo'nalishlari" mavzusidagi ish rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. O'zbekiston Respublikasi bojxona organlari tomonidan tovar belgilariga bo'lgan huquqlarning ommaviy-huquqiy himoyasini kompleks takomillashtirish, xususan huquqni qo'llash amaliyotidan kelib chiqib, tovar belgilarining ommaviy-huquqiy himoyasini ilmiy-nazariy masalalarini tahlil qilish, asoslash, tegishli xalqaro hujjatlar qoidalarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish mexanizmini ishlab chiqish va takliflar berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tovar belgisiga bo'lgan huquq va uni himoya qilishning yuridik tabiati va ushbu sohadagi doktrinal qarashlarning tahlilini o'tkazish;

tovar belgisiga bo'lgan huquqni himoya qilishning ommaviy-huquqiy jihatlari tadqiq qilish;

O'zbekistonda tovar belgisini ommaviy-huquqiy muhofazasini ta'minlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlanishini tahlil qilish;

xorijiy davlatlarning tovar belgilarini huquqiy himoya qilish tajribasini tadqiq qilish va shu asosda milliy qonunchilikka takliflar berish;

⁵ Mazkur ilmiy ishlarning to'liq nomi foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

xorijiy davlatlarda bojxona organlari tomonidan tovar belgilariga bo'lgan huquqlarning ommaviy-huquqiy himoyasini tashkil qilishning o'ziga xosligi o'rganish va uni yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

O'zbekiston Respublikasida tovar belgilariga oid huquqlarni buzilishiga qarshi kurashning huquqiy ta'sir choralari takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

O'zbekiston Respublikasi bojxona organlari tomonidan import va eksport operatsiyalarida tovar belgilariga bo'lgan huquqlarning himoya qilishning o'ziga xosligiga huquqiy baho berish;

kontrafakt tovarlar va parallel import muammolarini hal qilish istiqbollari hamda innovatsion usullari bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti O'zbekiston Respublikasi bojxona organlari tomonidan tovar belgilariga bo'lgan huquqlarning ommaviy-huquqiy himoyasini takomillashtirish bilan bog'liq munosabatlar tizimi hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini O'zbekiston Respublikasi bojxona organlari tomonidan tovar belgilariga bo'lgan huquqlarning ommaviy-huquqiy himoyasini tashkil qilish bilan bog'liq munosabatlar, ularni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo'llash amaliyoti, chet el davlatlari qonunchiligi va xalqaro hujjatlar, yuridik fandagi konseptual ta'limotlar, ilmiy-nazariy qarashlar va huquqiy kategoriyalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot davomida tarixiy, tizimli-tuzilmaviy, qiyosiy huquqiy, mantiqiy, induksiya va deduksiya, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, statistik ma'lumotlar tahlili kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Bojxona xizmati organlariga "Intellektual mulk obyektlarining bojxona reyestri"ga kiritilgan tovar belgilari bo'yicha huquqbuzarlik aniqlangan taqdirda o'z tashabbusiga ko'ra bu haqida huquq egasini xabardor qilish huquqini berish zarurligi asoslangan;

"Yagona darcha" bojxona axborot tizimi orqali intellektual mulk obyektlarini Reyestrda kiritish to'g'risidagi arizalarni yuborish va qabul qilish jarayonlarini raqamlashtirish zarurligi asoslab berilgan;

tashqi iqtisodiy faoliyat bojxona postlarida bojxona nazorati va rasmiylashtiruv jarayonida bojxona organlariga intellektual mulk obyektlari huquq egalari qonuniy manfaatlarini himoya qilish vazifasini yuklash zarurligi asoslangan;

bojxona organlari intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni himoya qilish maqsadida tovar belgisining huquq egasi to'g'risidagi ma'lumotlarni aniqlashtirish uchun O'zbekiston Respublikasida intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni himoya qilish sohasidagi vakolatli davlat organiga elektron so'rov yuborishi mumkinligi asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari.

bojxona organlari huquq egasining yoki uning vakolatli vakilining manzilini aniqlash va uni xabardor qilish uchun yigirma to'rt soat ichida barcha zarur choralarni ko'rishi zarurligi asoslangan;

bojxona organlari tomonidan kontrafakt va parallel importning oldini olish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi;

intellektual mulk obyektining O'zbekiston Respublikasidagi huquq egasi yoki uning vakolatli vakili to'g'risidagi ma'lumotlar aniqlangan taqdirda ularga xabar yuboriladi, shuningdek tovarlarni chiqarib yuborish uch ish kuniga to'xtatib turilishi asoslangan;

O'zbekistonda tovar belgilarini ro'yxatdan o'tkazish bosqichlarini soddalashtirish ularning huquqiy muhofazaga layoqatlilik mezonlari, muhofaza qilish shartlari ishlab chiqiladi;

tovar belgilariga nisbatan mutlaq huquqlarni amalga oshirishning ommaviy-huquqiy asoslari o'rganilib, uni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi;

tovar belgisini insofsiz raqobatdan muhofaza qilish masalalari o'rganilib, tegishli qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi;

tovar belgilaridan noqonuniy foydalanganlik uchun huquqiy javobgarlikning aniq chegarasi va doirasi belgilab berildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari xalqaro va milliy qonunchilik normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, qonunni qo'llash amaliyoti, ijtimoiy so'rovnomaning anketa, ekspert so'roviga asoslanganligi, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish natijalari umumlashtirilib, tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan. Xulosa, taklif va tavsiyalar aprobatsiyadan o'tkazilib, ularning natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingan. Olingan natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy-amaliy ahamiyati undagi ilmiy va nazariy xulosalar, takliflardan kelgusidagi ilmiy faoliyatda, qonun normalari ijodkorligida, qonunni qo'llash amaliyotida, ommaviy va fuqarolik qonunchiligining tegishli qoidalarini sharhlashda, milliy qonunchilikni takomillashtirish hamda fuqarolik huquqi, tadbirkorlik huquqi, intellektual mulk huquqi, xalqaro xususiy huquq, ma'muriy huquq, xalqaro huquq fanlarini ilmiy-nazariy jihatdan boyitishga xizmat qilishi bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalaridan yangi ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekiston Respublikasi bojxona organlari tomonidan tovar belgilariga bo'lgan huquqlarning ommaviy-huquqiy himoyasini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Bojxona xizmati organlariga Intellektual mulk obyektlarining bojxona reyestriga kiritilgan tovar belgilari bo'yicha huquqbuzarlik aniqlangan taqdirda o'z tashabbusiga ko'ra bu haqida huquq egasini xabardor qilish huquqini berish zarurligi haqidagi taklif O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-apreldagi "Intellektual mulk sohasini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-221-son qarorining 2-bandini ishlab chiqishda inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2023-yil 1-martdagi 27/1-149/8-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi bojxona organlarining tovar belgilari huquqiy himoyasi bo'yicha vakolatlarini belgilashga, ushbu sohadagi huquqbuzarliklarga qarshi samarali kurashga xizmat qilgan;

“Yagona darcha” bojxona axborot tizimi orqali intellektual mulk obyektlarini “Intellektual mulk obyektlari bojxona reyestri”ga kiritish to‘g‘risidagi arizalarni yuborish va qabul qilish jarayonlarini raqamlashtirish zarurligi haqidagi taklif O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-apreldagi “Intellektual mulk sohasini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–221-son qarorining 4-bandini ishlab chiqishda inobatga olingan (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasining 2023-yil 27-maydagi 16/05-23-00068-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi bojxona organlarining tovar belgilari huquqiy himoyasi bo‘yicha faoliyatini raqamlashtirishga, tovar belgilariga oid huquqlarni samarali huquqiy himoyasini ta’minlashga xizmat qilgan;

tashqi iqtisodiy faoliyat bojxona postlarida bojxona nazorati va rasmiylashtiruv jarayonida bojxona organlari tomonidan intellektual mulk obyektlari huquq egalarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish huquqini taqdim etish zarurligi haqidagi taklif O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-apreldagi “Intellektual mulk sohasini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–221-son qarorining 4-bandini ishlab chiqishda inobatga olingan (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasining 2023-yil 27-maydagi 16/05-23-00068-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi bojxona organlarining tovar belgilari huquqiy himoyasi bo‘yicha vakolatlarini kengaytirishga xizmat qilgan;

bojxona organlari intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarni himoya qilish maqsadida tovar belgisining huquq egasi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni aniqlashtirish uchun O‘zbekiston Respublikasida intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarni himoya qilish sohasidagi vakolatli davlat organiga elektron so‘rov yuborishi zarurligi haqidagi taklif 2024-yil 27-fevraldagi O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksiga bojxona tartib-taomillarini yanada takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ–913-son Qonuning 1-moddasi 40-bandini ishlab chiqishda inobatga olingan (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasining 2024-yil 21-martdagi 15/05-24-00436-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi bojxona organlari va intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarni himoya qilish sohasidagi vakolatli davlat organlarining tovar belgilari huquqiy himoyasi bo‘yicha o‘zaro hamkorligini ta’minlashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur dissertatsiya natijalari 5 ta ilmiy anjumanda, jumladan 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 11 ta ilmiy ish, jumladan 6 ta maqola (1 tasi xorijiy nashrlarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 9 ta paragrafni qamrab olgan 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 144 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurligi, tadqiqotning respublika fan-texnika va texnologiyalarni rivojlantirishning asosiy ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya ishining oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ish rejasi bilan o'zaro bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, metodlari, ilmiy yangiligi va tadqiqotning amaliy natijalari, ushbu natijalarning ishonchiligi, tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprotatsiyasi hamda natijalarining e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi kabi masalalar yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Tovar belgisiga bo‘lgan huquqni ommaviy-huquqiy himoya qilishning umumiy tavsifi”** deb nomlanib, unda tovar belgisiga bo‘lgan huquq va uni himoya qilishning yuridik tabiati hamda sohadagi doktrinal qarashlarning tahlili, tovar belgisiga bo‘lgan huquqni himoya qilishning ommaviy-huquqiy jihatlari, shuningdek O‘zbekistonda tovar belgisini ommaviy-huquqiy muhofazasini ta'minlashning tashkiliy-huquqiy asoslari tadqiq qilingan.

Ushbu bobda tadqiqotchi intellektual mulk obyektlarini, xususan tovar belgilarini konstitutsiyaviy-huquqiy himoya qilishga oid masalalarni chuqur o'rganib chiqqan, Ayrim xorijiy mamlakatlar konstitutsiyalaridagi tovar belgilarini himoya qilish mexanizmlari qiyosiy tahlili asosida ularning ijobiy jihatlari milliy qonunchilikka implementatsiya qilishga doir takliflar bergan. Shuningdek, muallif O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan intellektual mulk va uni himoya qilish haqidagi bosh normaning asosligini bayon qilgan.

Bundan tashqari, dissertant tovar belgisining huquqiy tabiatini tahlil qilib, o‘zining ilmiy ta’rifini taqdim etgan. Bunga ko‘ra, *“tovar belgisi – bu bir yoki bir necha shaxslarning ong va tafakkuri asosida moddiy tovar boyliklarni himoya qilish, ulardan foyda olish maqsadida yaratilgan hamda belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan so‘zli, harfli, raqamli, tasviriy ko‘rinishdagi maxsus belgi”*. Muallifning mazkur ta’rifi mazmunan tovar belgisining ijod mahsuli ekanligini, uning iqtisodiy ahamiyatini va huquqiy himoya zarurligini ifoda etadi.

Tadqiqot davomida *“muhofaza qilish”*, *“himoya qilish”* va *“ta’minlash”* tushunchalarining huquqiy tabiati qamrovli tahlil qilingan bo‘lib, tovar belgilarini *“himoya qilish”* atamasi tovar belgisidan noqonuniy foydalanish yoki ushbu huquq buzilishining oldini olish yoxud oldini olishga qaratilgan harakatlar va choralarni amalga oshirishni nazarda tutsa, *“muhofaza qilish”* atamasi esa tovar belgisini saqlash va undan noqonuniy foydalanishning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni anglatishini ilmiy asoslab berilgan. Shuningdek, *“ta’minlash”* atamasi tovar belgisiga bo‘lgan huquqlarni samarali himoya qilish va muhofaza qilish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni ifodalashi ko‘rsatib o‘tilgan.

Muallif tovar belgilarini himoya qilish sohasidagi mavjud ilmiy doktrinalarni tizimli tahlil qilib, yangi konseptual qarashlarni ilgari surgan. Jumladan, *“tovar belgilarining ommaviy-huquqiy himoyasi”*, *“intellektual mulk bojxona xavfsizligi”*, *“davlat-xususiy sheriklik”* modelini rivojlantirish kabi konsepsiyalarning afzalliklarini ko‘rsatib bergan. Shuningdek, *“bojxona organlarining preventiv funksiyasi”* nazariyasi va *“bojxona organlarining vakolatlari chegaralari”* nazariyasi kabi konsepsiyalarni chuqur tadqiq etgan.

Ilmiy ishda tovar belgilarini himoya qilish sohasida “davlat-xususiy sheriklik” modelini rivojlantirish taklif etilgan. Muallif bu modelning afzalliklarini ko‘rsatib, u davlat va xususiy sektor resurslarini birlashtirish orqali samaradorlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish va innovatsion yondashuvlarni rag‘batlantirishga xizmat qilishini asoslab bergan.

Tadqiqot natijasida O‘zbekiston sharoitida “ommaviy-huquqiy himoya” konsepsiyasini qo‘llash bugungi kunda maqsadga muvofiqligini ilmiy asoslab berilgan. Dissertantning fikricha, bu konsepsiya tovar belgilarini nafaqat xususiy huquq obyekt sifatida, balki jamiyat manfaatlarini himoya qiluvchi vosita sifatida ham ahamiyatini ta’kidlaydi.

Yuqoridagilardan tashqari, tadqiqotchi zamonaviy sharoitlar va raqamli iqtisodiyotni rivojlanishi munosabati bilan “raqamli bojxona nazorati” konsepsiyasi va “transchegaraviy intellektual mulk huquqi” konsepsiyasini yangi yo‘nalish sifatida ilgari surgan. Bu konsepsiyalarning mohiyati, afzalliklari va ularni joriy etish mexanizmlari batafsil yoritib berilgan.

Muallif “raqamli bojxona nazorati” konsepsiyasini rivojlantirish zarurligini ilgari surgan. Bu konsepsiya zamonaviy texnologiyalardan foydalanib, bojxona jarayonlarini optimallashtirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan. Uning asosiy afzalliklari sifatida tezkor va aniq ma’lumot almashinuvi, xavf-xatarlarni oldindan aniqlash imkoniyati, korrupsiya xavfini kamaytirish va xarajatlarni qisqartirish imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan.

Muallif tovar belgilarini himoya qilishda mutanosiblik prinsipini joriy etish zarurligini ilmiy jihatdan asoslagan. Bu prinsip tovar belgisi egalarining huquqlari va jamiyat manfaatlari o‘rtasida muvozanatni ta’minlashga xizmat qilishi, shuningdek huquqlarni suiiste’mol qilishning oldini olishi va sog‘lom raqobatni rag‘batlantirishi ta’kidlangan.

Muallif tovar belgilarini himoya qilishda mutanosiblik prinsipining ahamiyatini alohida ta’kidlab, uning to‘rt jihatini ochib bergan: ta’sir chorasining mutanosibligi, himoya choralarning mutanosibligi, jamoat manfaatlarini hisobga olish, moslashuvchanlik va mazmunan bog‘liqlik. Bu prinsipni amaliyotga joriy etish mexanizmlari bo‘yicha aniq takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotchi xalqaro tajribani o‘rganish asosida noan’anaviy tovar belgilarini (tovush, harakat, hid va boshqalar) ro‘yxatdan o‘tkazish imkoniyatini yaratish bo‘yicha “Tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to‘g‘risida”gi qonunga aniq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishni taklif etgan. Jumladan, qonunni 10¹-modda bilan to‘ldirish orqali noan’anaviy tovar belgilarini ro‘yxatdan o‘tkazishning o‘ziga xos xususiyatlarini belgilash taklif qilingan. Bu taklifning amalga oshirilishi milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishga xizmat qilishi asoslab berilgan.

Muallif tovar belgilarini ro‘yxatdan o‘tkazish jarayonini to‘liq raqamlashtirish va “Yagona darcha” tizimini joriy etish zarurligini asoslagan. Bu taklif O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-apreldagi PQ–221-son qarorini ishlab chiqishda inobatga olingan. Tadqiqotchi bu yangilikning byurokratik to‘siqlarni kamaytirish va jarayonning samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini ko‘rsatib bergan.

Tadqiqotda tovar belgilarining ommaviy-huquqiy muhofazasini ta’minlashning tashkiliy-huquqiy asoslari tarixiy rivoji nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Muallif O‘zbekistonda tovar belgilarini himoya qilish tizimining

shakllanish bosqichlarini, huquqiy asoslarining rivojlanishini va bu boradagi institutsional o'zgarishlarni tizimli ravishda yoritib bergan.

Muallif bojxona organlarining tovar belgilarini himoya qilishdagi rolini kuchaytirish zarurligini asoslagan. Bunda bojxona organlarining nafaqat nazorat funksiyasini, balki huquqbuzarliklarning oldini olish funksiyasini ham kuchaytirish taklif etilgan. Shuningdek, bojxona organlari va intellektual mulk idoralari o'rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish bo'yicha aniq takliflar ishlab chiqilgan.

Muallif tovar belgilari sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratgan. Xalqaro shartnomalar va bitimlarning ahamiyati, ularni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish mexanizmlari, xalqaro tajribani joriy etish yo'llari batafsil yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Tovar belgilariga bo'lgan huquqlarning ommaviy-huquqiy himoyasini tashkil qilish bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasi”**ga bag'ishlangan bo'lib, mazkur bobda ayrim xorijiy davlatlarning tovar belgilarini huquqiy himoya qilish tajribasiga umumiy tavsif, xorijiy davlatlarda bojxona organlari tomonidan tovar belgilariga bo'lgan huquqlarning ommaviy-huquqiy himoyasini tashkil qilishning o'ziga xosligi o'rganilgan.

Muallif ikkinchi bobda tovar belgilariga bo'lgan huquqlarning ommaviy-huquqiy himoyasini tashkil qilish bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasini chuqur tahlil qilgan. Tadqiqotda quyidagi muhim ilmiy natijalarga erishilgan.

Muallif ilk bor xalqaro tajribani tizimli tahlil qilish asosida tovar belgilarini himoya qilishning to'rt asosiy shaklini aniqlab bergan: vakolatli davlat organi tomonidan muhofaza hujjati taqdim etilishi, sudgacha bo'lgan o'zaro kelishuv, sud orqali himoya qilish va ma'muriy yo'llar bilan tegishli davlat organlarining kuch va vositalari orqali. Tadqiqotchi ushbu shakllar o'zaro uyg'un va bir-birini to'ldiruvchi tizim sifatida faoliyat yuritishi lozimligini ilmiy asoslab bergan.

Tadqiqotda kontrafakt mahsulotlarga qarshi kurashishning zamonaviy xalqaro tajribasi chuqur o'rganilgan. Jumladan, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining 2023-yildagi statistik ma'lumotlari tahlil qilinib, 75 foiz kontrafakt tovarlarning kelib chiqishi Osiyo davlatlari ulushiga to'g'ri kelishi, bu esa mintaqada kontrafakt mahsulotlarga qarshi kurashish mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Tadqiqotchi Yevropa Ittifoqi tajribasini chuqur tahlil qilib, tovar belgilarini mintaqaviy tartib-taomil asosida himoya qilish tizimining afzalliklarini ko'rsatib bergan. Muallif YeIda tovar belgisining “hamma narsa yoki hech narsa” tamoyili asosida himoya qilinishi, ya'ni tovar belgisi ittifoqning bir davlatida bekor qilinsa, barcha a'zo davlatlarda ham huquqiy muhofaza tugatilishi amaliyotini ijobiy baholagan.

Muallif AQSh tajribasini o'rganish asosida tovar belgilarini federal tartibda ro'yxatdan o'tkazish tizimining afzalliklarini ochib bergan. AQShda distribyuter va importerlarning tovar belgisiga nisbatan huquqlari cheklanganligi, ular faqat huquq egasi bilan tuzilgan shartnoma asosidagina tovar belgisidan foydalanish huquqiga ega bo'lishi aniqlangan. Shuningdek, AQShda mahsulotning hududiy kelib chiqishi, tayyorlash usuli va boshqa xususiyatlarini farqlash uchun sertifikatlangan markalardan foydalanish amaliyoti ijobiy baholangan.

Tadqiqotchi Germaniya tajribasini tahlil qilib, noan'anaviy tovar belgilarini ro'yxatdan o'tkazish amaliyotining ijobiy jihatlarini ochib bergan. Germaniyada

2019-yildan boshlab video sahna ko‘rinishi, harakat belgilari, tovushli-ovoz audiofayllari, gologramma, hid taratuvchi mahsulotlarni tovar belgisi sifatida ro‘yxatdan o‘tkazish imkoniyati yaratilganligi, bu esa tovar belgilarini himoya qilish tizimini takomillashtirishga xizmat qilishi asoslab berilgan.

Xitoy tajribasini o‘rganish asosida muallif kontrafakt mahsulotlarga qarshi kurashda kompleks yondashuv zarurligini ilmiy asoslagan. Xitoyda kontrafakt mahsulotlarni yo‘q qilish, tovar belgilarini tijorat maqsadida qayta sotishga yo‘l qo‘ymaslik, kontrafakt mahsulotlarni tayyorlashda foydalanilgan jihozlarni so‘zsiz yo‘q qilish kabi samarali choralarining qo‘llanilishi ijobiy baholangan.

Rossiya tajribasini tahlil qilish asosida muallif “ex-officio” tamoyilining ahamiyatini ochib bergan. Bu tamoyil bojxona organlariga reyestrda kiritilmagan intellektual mulk obyektlari huquqini buzuvchi tovarlarni ham chiqarib yuborishni to‘xtatib turish vakolatini berishi, bu esa tovar belgilarini himoya qilish tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qilishi asoslab berilgan.

Tadqiqotchi bojxona organlarining tovar belgilarini himoya qilishdagi rolini kuchaytirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Bunda “raqamli bojxona” konsepsiyasini joriy etish, sun‘iy intellekt va mashina o‘rganish texnologiyalaridan foydalanish, tovar belgilarini qalbakilashtirishga qarshi kurashda xalqaro hamkorlikni kuchaytirish bo‘yicha aniq takliflar ishlab chiqilgan.

Muallif xorijiy tajribani o‘rganish asosida tovar belgilarini himoya qilishda bojxona organlarining rolini kuchaytirish bo‘yicha quyidagi takliflarni ilgari surgan: birinchidan, bojxona organlarining tovar belgilarini himoya qilish bo‘yicha vakolatlarini kengaytirish; ikkinchidan, bojxona organlari va intellektual mulk idoralari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish; uchinchidan, kontrafakt mahsulotlarga qarshi kurashda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish; to‘rtinchidan, bojxona nazoratida raqamli texnologiyalardan keng foydalanish mexanizmlarini joriy etish.

Xulosa qilish mumkinki, muallif ikkinchi bobda tovar belgilarini himoya qilish bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribani chuqur tahlil qilib, uni milliy amaliyotga joriy etish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqqan. Tadqiqotning bu qismida ilgari surilgan g‘oyalar va takliflar tovar belgilarini himoya qilish tizimini takomillashtirishga muhim hissa qo‘shishi mumkin.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“O‘zbekistonda bojxona organlari tomonidan tovar belgilariga bo‘lgan huquqni himoya qilishni takomillashtirish”** deb nomlandi. Ushbu bobda O‘zbekiston Respublikasida tovar belgilariga oid huquqlarni buzilishiga qarshi kurashning huquqiy ta’sir choralari takomillashtirish, O‘zbekiston Respublikasi bojxona organlari tomonidan import va eksport operatsiyalarida tovar belgilariga bo‘lgan huquqlarning himoya qilishning o‘ziga xosligi, kontrafakt tovarlar va parallel import muammolarini hal qilish istiqbollari hamda innovatsion usullari tahlili bayon qilingan.

Uchinchi bobda muallif O‘zbekistonda bojxona organlari tomonidan tovar belgilariga bo‘lgan huquqni himoya qilishni takomillashtirish masalalarini kompleks tadqiq etgan.

Muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasida tovar belgilariga oid huquqlarni buzilishiga qarshi kurashning huquqiy ta’sir choralari takomillashtirish masalalari chuqur o‘rganilgan. Xususan, statistik ma’lumotlar tahlili natijasida 2021-2023-yillarda tovar belgilarini ro‘yxatdan o‘tkazish uchun topshirilgan talabnomalar soni ortib

borayotgani, shuningdek intellektual mulk sohasidagi murojaatlar soni ham ko'paygani aniqlangan. Jumladan, 2021-yilda 6389 ta, 2022-yilda 7222 ta, 2023-yilda esa 6828 ta talabnoma topshirilgan. Shu bilan birga, adliya organlariga yo'llangan murojaatlar soni 2021-yilda 767 ta, 2022-yilda 841 ta, 2023-yilda esa 1190 tani tashkil etgan.

Tadqiqotchi tovar belgilari bilan bog'liq huquqbuzarliklarni aniqlash va ularga nisbatan ma'muriy bayonnoma tuzish vakolatini Adliya vazirligi va Davlat bojxona qo'mitasiga berish zarurligini asoslab bergan. Buning uchun Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 245²-moddasiga va 262-moddasiga tegishli o'zgartirishlar kiritish taklif etilgan. Muallifning fikricha, bu vakolatlarning berilishi tovar belgilariga nisbatan sodir etilayotgan huquqbuzarliklarga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Dissertatsiyada O'zbekiston Respublikasida tovar belgilariga oid huquqbuzarliklar uchun jinoiy javobgarlik belgilanmaganligi tanqidiy tahlil qilingan. Xorijiy davlatlar, jumladan Germaniya, Fransiya tajribasi o'rganilib, Jinoyat kodeksiga "O'zganing tovar belgisidan, xizmat ko'rsatish belgisidan, geografik ko'rsatkichidan, tovar kelib chiqqan joy nomidan yoki firma nomidan qonunga xilof ravishda foydalanish" deb nomlangan 149¹-modda kiritish taklif etilgan. Muallif jinoiy javobgarlikning kiritilishi tovar belgisi egalarining huquqlarini kuchliroq himoya qilish va huquqbuzarliklarning oldini olishga xizmat qilishini asoslab bergan.

Muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi bojxona organlari tomonidan import va eksport operatsiyalarida tovar belgilariga bo'lgan huquqlarning himoya qilishning o'ziga xosligi masalalari tadqiq etilgan. Jumladan, bojxona organlari tomonidan intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni himoya qilish sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari o'rganilgan. Xususan, "Intellektual mulk obyekti bojxona reyestri"ni bojxona organlarining mavjud elektron dasturiy ta'minotlari bilan integratsiya qilish orqali bojxona rasmiylashtiruvi jarayonida mantiqiy nazorat o'rnatish taklif etilgan.

Tadqiqotda kontrafakt tovarlar va parallel import muammolarini hal qilish istiqbollari hamda innovatsion usullari chuqur tahlil qilingan. Muallif "parallel import" tushunchasiga ilmiy-nazariy jihatdan yondashib, uni "tovar belgisi egasining roziligisiz, ammo uning ruxsati bilan boshqa mamlakatda muomalaga chiqarilgan original tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish" deb ta'riflagan. Shuningdek, Bojxona kodeksiga "Parallel importni amalga oshirish tartibi" deb nomlangan 23¹-modda kiritish taklif etilgan. Ushbu moddada parallel importni amalga oshirish shartlari, tovar belgisi egasining huquqlari va majburiyatlari, shuningdek davlat organlarining vakolatlari batafsil belgilangan.

Dissertatsiyada tovar belgilarini baholash tizimini takomillashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Germaniya tajribasi, xususan DIN 77100 standarti o'rganilib, bojxona va adliya organlari tomonidan tovar belgilarini iqtisodiy baholash metodologiyasini ishlab chiqish va joriy etish taklifi ilgari surilgan. Muallifning fikricha, bu tovar belgilarining haqiqiy qiymatini aniqlash va iqtisodiy nizolarni hal qilish imkonini yaratadi.

Shuningdek, Fuqarolik kodeksining 1107¹-moddasi va "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi Qonunning 26-moddasida tovar belgisining fuqarolik muomalasiga kiritilishi bilan bog'liq normalarni takomillashtirish zarurligi asoslab berilgan. Xususan, tovar belgisi ishlab chiqarilgan hududda yoki olib kirilgan (import qilingan) hududda fuqarolik muomalasiga

kiritilgan bo'lsa, qaysi holatda mutlaq huquqi buzilmagan deb hisoblanishiga aniqlik kiritish taklif etilgan.

Tadqiqot natijasida muallif quyidagi asosiy ilmiy xulosalarga kelgan:

